

“China Coal Resources Development Group” kompaniyasi delegatsiyasi bilan uchrashuv o‘tkazildi

// 14 November 2025 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/china-coal-resources-development-group-kompaniyasi-delegatsiya>



“O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi Odil Temirov Xitoyning “China Coal Resources Development Group” kompaniyasi raisi Lyu Goshen boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv o‘tkazdi.



Suhbat chog'ida "O'zbekimiyosanoat" AJ va "China Coal Resources Development Group" kompaniyasi bilan hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi. Xususan, CTO (coal to olefins) texnologiyasi asosida ko'mirni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirish yuzasidan fikr almashildi.

Ma'lumot o'rnida aytib o'tish joiz, "China Coal Resources Development Group" Xitoy Xalq Respublikasining yirik davlat energetika kompaniyasi bo'lib, uning asosiy faoliyati ko'mir qazib olish va qayta ishlash, shuningdek, ko'mir va energetika sohalarini qamrab olgan to'liq integratsiyalashgan sanoat klasterini rivojlantirishdan iborat.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati